Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318225

materiallar to'plami

TEXNIK FANLAR FAKULTETLARIDA INGLIZ TILI DARSLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'RGATISH MUAMMOLARI

Axunova Aziza Rustamovna, "Ishlab chiqarishda boshqaruv" fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Tursunboeva Muxlisa Anvar qizi, Farg'ona politexnika instituti

"O'zbek tili va tillarni o'rgatish" kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Havola etilayotgan maqola oliy ta'lim tizimi, texnik fanlar fakultetlarida kasbiy fanlarni ingliz tili fani bilan integrativ yondashuvni bog'lagan holda o'qitish masalasi taklif qilingan. Integrativ yondashuv yordamida ta'lim berishning texnik oliy o'quv yurtlaridagi ahamiyatiga alohida urg'u berilib uning qanday shakllanishi yoritib berilgan berilgan.

Kalit so'zlar: *texnik fakultetlar, texnik fanlar, integrativ yondashuv, pedagogik integratsiya, kasbiy kompetensiya, assimilyatsiya.*

Аннотация

В статье, на которую ссылается система высшего образования, был предложен вопрос преподавания профессиональных дисциплин на факультетах технических наук, связывающий интегративный подход с дисциплиной английского языка. С особым акцентом на важность образования в технических высших учебных заведениях с использованием интегративного подхода освещается, как оно формируется.

Ключевые слова: *технические факультеты, технические науки, интегративный подход, педагогическая интеграция, профессиональная компетентность, ассимиляция.*

Annotation

In the article referred to by the higher education system, the question of teaching professional disciplines at the faculties of technical sciences was proposed, linking the integrative approach with the discipline of the English language. With a special emphasis on the importance of education in technical higher educational institutions using an integrative approach, how it is formed is highlighted.

Keywords: *technical faculties, technical sciences, integrative approach, pedagogical integration, professional competence, assimilation.*

Texnik oliy o'quv yurtlari bitiruvchisi uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida nafaqat "ma'lum bilimlarni", balki shaxsiy va kasbiy ahamiyatli kognitiv ko'nikmalarni ham shakllantirish, bu "kognitiv faoliyatning tanqidiy uslubi" atamasi bilan birlashtirilgan, Ulardan foydalanish imkoniyati xususan chet tilini o'qitish paytida juda muhimdir.

Ilmiy –tadqiqot adabiyotlar tahlili natijasiga ko'ra chet tilini o'qitish metodi 3 turga bo'linadi:

- Izlanish va tadqiqot (talaba o'zini ma'daniy shakllantirib borish) ;

Published: 10.11.2023

Cite this article: Axunova Aziza Rustamovna, Tursunboeva Muxlisa Anvar qizi (2023). Texnik fanlar fakultetlarida ingliz tili darslarini integrativ yondashuv asosida o'rgatish muammolari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318225

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

• Kommunikativ-muammoli (ko‘rilayotgan muammo nuqtai nazaridan talaba o‘zaro bahslarda ishtirok etishi) ;

• Muammoli – qidiruv metodi (informatsion texnologiyalardan, slayd va prezentatsiyalardan foydalanish).

So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda ta’limda integrativ faoliyatning tanqidiy uslubi pedagogika fanini o‘rganish obyektiga aylandi. Integrativ yondashuv o‘qitish tizimining elementlararo aloqani o‘rnatuvchi jarayon almashinuvini o‘z ichiga olib, talabalarga har tomonlama va yaxlit bilim berish shakli hisoblanadi. Pedagogik integratsiyani rivojlantiruvchi bir qancha etaplar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga pedagogik integratsiyaning komponentlari, tarkibiy elementlari keng o‘rganilgan. Ushbu yondashuv ingliz tilini o‘rganish jarayonida ham ko‘rib chiqilmoqda. Shu sababli ta’limda integrativ yondashuvning asosiy vazifalari tahlil qilingan. Integrativ yondashuv asosida o‘qitish zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga keng yo‘l ochib beradi [1].

Pedagogik integratsiyaning umumiy funksiyalari mavjud: metodik, rivojlantiruvchi, texnologik. Ushbu funksiyalar integrativ yondashuvning ma’lum bir vazifalarini amalga oshirishda ko‘makchi bo‘lib xizmat qiladi. Texnika fakultetlari talabalari integrativ yondashuv asosida ushbu metodlardan foydalanish natijasida chet tili (ingliz tili) o‘rganishi anchayin yuqori samara bergani isbotlangan.

Texnika fakultetlarida ingliz tili darslarini integrativ yondashuv asosida o‘qitish o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biri, ya’ni, talabalarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga to‘g‘ri yo‘naltira olish hisoblanadi.

Yana bir e’tiborli jihati shundaki, ingliz tilining texnik fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi bor. Bunday integratsiya chet tilini o‘qitishning barcha bosqichlarida, yuqori professional o‘qitish bilan bir qatorda individual o‘qitishda ham amalga oshirilishi mumkin [2]. Ingliz tili professionalizmiga chuqurroq kirib borgan sari integrativ yondashuvni amalga oshirishda qator komponentlarni ajratib olishga imkon beradi:

Tizim ko‘nikmalarini shakllantirishda organik birlikka erishishga, o‘qishni o‘rgatish, o‘qilganlarni sharhlash va shu asosda talabalarni o‘z fikrlari bilan tanishtirish imkon beradigan ingliz tilini o‘rganish uchun integratsiya birligi sifatida professional matnni tanlash [3].

Texnikaviy matnlar yuzasidan ingliz tilini o‘qitish metodikasida matnga yuqori darajadagi kommunikativ birlik sifatida yondasha olishga yo‘l ochib beradi.

Shundan kelib chiqib o‘qituvchilar oldida har bir tayyorlov yo‘nalishlari uchun to‘g‘ri matn tanlay olishlaridek muhim vazifa turadi. Bu masala bir necha yillardan buyon muhokamada bo‘lib, to‘liq echimini topgani yo‘q. Integrativ yondashuv yagona, adolatli bo‘lishni anglatish bilan birga o‘rganiladigan fanlarning bir biriga tegishli mavzularining kombinatsiyasi talaba ta’limining xar bir bosqichida o‘zaro bog‘liq. O‘quv jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun integrativ yondashuvdan foydalanishdan oldin:

1) texnik o‘quv fanlarining tarkibiy va mantiqiy aloqalarini aniqlash;

2) integratsiyaga mansub tarkibiy qismlarini ajrata olish;
3) integratsiyaning shartlari va usullarini aniqlash.

Integrativ yondashuvni oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishning yaxlit jarayonini tashkil etish va unda umumiy ilmiy konseptual apparatni tashkil etuvchi, bir fan usullarini boshqalarga o‘tkazishga yordam beradigan fanlararo aloqalarni amalga oshirishga yondashuv sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir [4].

Texnik fanlar mutaxassisligi bo‘yicha amaliy bakalavrlar uchun ingliz tilini va ta’limning texnik kasbiy tarkibiy qismini birgalikda o‘rganishni maksimal darajada to‘ldirish uchun biz ayrim fan darslarni asosan ingliz tilida integrativ yondashuv yordamida o‘tkazishni taklif qildik. Dars tarkibidagi asosiy jihatlardan biri bu mavzuning mazmuni, ya’ni bu erda ilgari o‘rganilgan mavzularga katta e’tibor berilishidir. Bular mutaxassislik fanlarning asosiy tushunchalari va atamalarini mashg‘ulot jarayonida o‘zlashtirishdir. Ingliz tilidan foydalangan holda texnik fanlarni o‘rganish ingliz tilining nutq faoliyati vositalari asosida ishlatishni o‘z ichiga oladi. Biz materiallar mazmunini assimilyatsiya orqali, ya’ni ingliz va "mavzu" texnik tillarda parallel shaklda o‘rganishni tavsiya etdik [5].

Adabiyotlar:

1. Горн А.М. К вопросу о профессиональной направленности в обучении иностранным языкам на специальном факультете / А.М. Горн // ИЯВШ, вып. 1.– М.: ВШ, 2002.–С. 105-111.
2. Kizi, T. M. A. (2021). Teaching natural sciences and english language on the basis of integrative approach in higher education. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 126-129.
3. Kizi, T. M. A. (2021). The concept of professional competence in higher education and the state of its formation among students of the natural science faculty.
4. АрхипенкоМ.А. Педагогическая интеграция как фактор повышения конкурентоспособности будущего специалиста в условиях обучения в высшей школе (на примере дисциплины «Иностранный язык»): дисс. .. .к.пед.н. Елец, 2007. 208 с.
5. Qizi, B. D. F., & Qizi, T. M. A. (2019). Difficulties in learning English as a second/foreign language. Достижения науки и образования, (4 (45)), 47-48.